

This is not registered version of TotalDocConverter

Hozirgi davrda ko'pchilik odamlar qiyinlik bilan qiyinlik qoladi, derdi o'qituvchimiz. To'g'ri aytgan ekan. Mana men ham tilni bilmaganim uchun qiyinlik o'tiribman. O'zimni shu kecha ko'rgan tushimni tushunolmay boshim garang, asabim tarang bo'lib ketdi. O'tgan kuniyam shunaqa bo'luvdi. Chunki, tushlarni inglizcha ko'ryapman-da.

Ahvolimdan xabar topgan onam bechora tashvishga tushib qoldi. Shifokorga olib bormoqchi bo'luvdi unamadim. Battar taajjublangancha sekin so'radi:

- Voy, bolaginam-ey. Tushlaringni hammasi inglizchami?

ВЂ”E-e, qo'yavering, - dedim-u qo'l siltab nari ketdim.

Aslida tushimni uncha-muncha o'zbekcha joylari ham bor. Lekin, shunday narsalarki, birovga aytgani xijolat bo'lasan. Ko'ngli tinchimagan onam ishga o'tlanayotgan otamning ortidan chiqib allanimalarni shivirladi.

- O'zidan ko'rsin, - dedi otam sal jahli chiqqanday. Elchixonaning atrofida o'ralashib yurgandan keyin shunaqa bo'ladi-da.

- Elchixonaning?.. dedi onam hayrat bilan ko'zlarini kata-katta ochib.

- Ha. Ishxonamizdagilar aytishdi. O'sha yerdagi tarjimon qizdan til o'rganayotgan emish.

- Voy, xudoyim-ey, shunaqa deng. Xayolimga bir zumda nimalar kelmasi-da, dadasi. Lekin, kasali

- Qo'yaver, buningni kasali xavfli emas. O'tib ketadi, - dedi otam sirli jilmayib. - Do'xtirini ham o'zi topyapti shekilli.

Onam hech narsaga tushunmay bir otamga, bir menga qarab qolaverdi. Biroq otam darrov qayoqdan bilaqoldiykin?.. Chindan ham o'sha tarjimon qiz ishxonamizga horijlik mehmonlar bilan kelib ularning gaplarini o'girib turganda juda havasim keluvdi. Ingliz tilida ona tilimizday biyron so'zlashadigan bu ko'hlikkina qiz bo'sh paytlarida qiziquvchilarga til o'rgatar ekan. Darrov manzili va telefonlarini so'rab yozib oluvdim. Bir oydirki undan ingliz tilidan saboq o'lyapman.

Mashg'ulotlar ancha charchatayapti. Buning ustiga ora kunda g'alati tushlar ko'rib chiqishim qiziq bo'lyapti-da. Bunaqa hayratlanarli gaplarni ichingda saqlab turish ham qiyin ekan. Ko'nglim to'lib ketib bir ikkita og'zi mahkamroq og'aynilarimga hech kimga aytmaslik sharti bilan inglizcha tushlarim haqida jinday yoriluvdim. Bekor qilgan ekanman. Mana endi, ular ham

kimlargadir, birovga gullab qo'yamasliklarini tayinlab, xushxabarlaganlar shekilli. O'z navbatida boshqalar ham uzunquloq gaplarni urchitib yuborishibdi. Oqibatda mening inglizcha tushlarim haqidagi gaplar butun shaharga ovoza bo'lib ketdi. Ko'cha-ko'yda, guzarlarda odamlarning ayrimlari kulib, ba'zilar rahmi kelganday qarab qolganlarida o'zimni qo'ygani joy topolmayman.

Bular ham mayli-ya, allaqanday xalqaro jamiyatning jurnali tahririyatidan kelgan muxbirlarning gaplariga chidab turolmadim.

Sodir bo'lgan nodir hodisa haqida materiallar to'plashmoqchi emish. Buning uchun uxlayotganimni, tush ko'rayotganimni kuzatishlari, tasvirga tushirishlari kerak ekan. Xunobim oshib hammasini avval o'zbekcha, keyin inglizchalab izohli lug'atlarda ham yo'q so'zlar bilan so'kib, quvib soldim.

Ana shundan keyin tilim ancha burro bo'lib qolganday tuyulib tarjimon qiz huzuriga tez-tez boradigan bo'ldim. O'ziyam menga inglizchani o'rgataman deb rosa harakat qilayapti. Lekin har qancha urinmay "I lav you"dan boshqasiga tilim kelmayapti.

Dunyoning ishlari shunaqa-da. Bir birimizni tilimizni tushungunimizcha anchamuncha vaqt o'tib ketadi.

Buyoqda ba'zi kunlari Mish-mishlarni oshirib-toshirib so'zlaydigan qo'shni xotinalarning oldi-qochdi gaplarini eslab onam jinday ko'z yoshi ham qilib oladi va "ishqilib, yaratganning o'zi oxirini bahayr qilsin" deb qo'yadi. Onalarning tilagi ijobat bo'ladi, deganlari to'g'ri ekan. Hammasi ko'ngildagidek bo'lib ketdi.

Gapni cho'zmay, to'g'risini aytib qo'yaqolay. Ingliz tilini uncha yaxshi o'rganolmadim. Lekin afsuslanmayman. Qiyinalayotganim ham yo'q. Chunki o'sha tarjimon qiz kelinoyingiz bo'lib qoldi. Endi tushlarni birga ko'ryapmiz.